

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

“Kasb ta'limi” fakulteti

“Kasb ta'limi metodikasi” kafedrasи

“Kasb ta'limi metodikasi” fanidan

KURS ISHI

*Mavzu: KHK o‘quvchilariga “Boshqaruv va releli elektrapparaturasi”
mavzusini o‘qitishning metodik asoslari.*

Bajardi: TMJ-401 gurux talabasi

J.Xaydavalov

Ilmiy rahbar-“Kasb ta'limi metodikasi”
kafedrasи dotsenti

p.f.n., S.A.Boltaboyev

Kirish

- a) Kurs ishi mavzusining dolzarbligi.
- b) Kurs ishi mavzusini yoritishda foydalanilgan adabiyotlar tahlili

I. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarga «Boshqaruv va relei elektrapparaturasi » mavzusini o‘qitishning nazariy asoslari

I.1. O‘quvchilarning egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy va tashkiliy asoslari

I.2. «Boshqaruv va relei elektrapparaturasi » mazusini o‘qitishning mazmuni.

II. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarga «Boshqaruv va relei elektrapparaturasi » mazusini o‘qitishning metodik asoslari

II.1. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarga elektrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish shakllari va metodlari

II.2. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarga «Boshqaruv va relei elektrapparaturasi » mazusini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

Kirish

a) Kurs ishi mavzusining dolzarbliги.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning qabul qilinishi va amaliyotga joriy qilinishi buning yaqqol misolidir. Ayniqsa, ta’limning o‘rta maxsus kasb - hunar bosqichida qilingan yangiliklar boshqa jarayonlardan o‘zining bir tizimliligi, izchilligi va uzviyligi bilan ajralib turadi. O‘rta maxsus, kasb – hunar ta’limi muassasalarida jamiyatimizga ijodkor, bilim salohiyati yuqori bo‘lgan malakali kichik mutaxassislarni yetkazib berishimiz kerak. Hozirda umumiy o‘rta ta’lim maktabalarini bitirgan yoshlarning aksariyati kasb - hunar kollejlariga borib, kasb - hunar egasi bo‘lishga intilmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, jamiyatimiz rivojida ularning xissalari kattadir. Shuning uchun kasb - hunar kollejlarida ta’lim olayotgan yoshlarni yetuk, bilimli, ko‘nikma, malaka egasi va barkamol inson qilib tarbiyalash katta ahamiyat kasb etadi. Buning uchun albattda kasb – hunar kollejlarida yoshlarga bilim beradigan pedagog va muhandis – pedagoglarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga etiborini qaratishimiz kerak.

Hozirgi kunda kasb – hunar kollejlarida elektrotexnika fanlarini o‘qitish jarayoniga, umumkasbiy ta’limini tashkil etishga, ijodiy tafakkurlashlarning ta’lim samaradorligiga ahamiyatiga yetarli etibor berilmayapti. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarining darsdan bo‘s sh vaqtlarida o‘z ustilarida shug‘ullanmasliklari, ya’ni kutubxonalarda kerakli adabiyotlarning yetishmasligi, yangi innovatsion texnologiyadan foydalanishni bilmasliklari, bilimlarni olishga kam vaqt sarflashlari va h.k. Ushbu muammolarni ijobiy hal qilish uchun mustaqil ta’limni izchil tizimga keltirish kerak. Shu bilan birga talabalarning psixologik va individual xususiyatlarini, ijtimoiy amaliyot motivlarining ichki va tashqi shakllanganlik darajasi o‘ziga xos shaxsiy - ahloqiy xususiyatlari, kasbiy malakaviy darajasiga va x.k. bog‘iq bo‘ladi.

Sharqning buyuk olimlari o‘z ijodida mehnatni, kasb - hunar egallashni va xalq manfaati yo‘lida jonbozlik ko‘rsatish lozimligini ta’kidlab o‘tishgan.

Mutafakkirlardan: Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg‘oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos-+ojib, Shayh Najmuddin Qubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Axmad Yugnakiy va Alisher Navoiylar mehnatni kasb - hunarni ulug‘laganlar.

Yoshlarda kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanirish muammosi ustida ko‘pgina xorijiy davlatlar va vatanimiz olimlari shug‘ullanganlar va shug‘ullanib kelmoqdalar.

Biz bu vazifalarni maqsadga muvofiq maxsus tadqiq etishda uning mohiyatini tashkil etuvchi takomillashgan metodlarini tanlab, tizimlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Mehnat va kasbiy ta’lim mazmunining uzviyligi va uzlusizligini takomillashtirish yo‘llari hamda vositalarini tadqiqi borasida A.I.Varobayev, U.N.Nishonaliyev, A.R.Xodjabayev, P.T.Magzumov, E.T.Choriyev, N.SH.Shodihev, O‘.Q.Tolipov va boshqa pedagog-olimlar izlanish olib borganlar. Shuningdek, mehnat va kasb ta’limining pedagogik va didaktik sharoitlarini ishlab chiqish masalalari N.A.Muslimov, K.D.Davlatov, O.Magdiyev, SH.S.Sharipov va boshqalarning ishlarida qarab chiqilgan.

v) Kurs ishi mavzusini yoritishda foydalanilgan adabiyotlar tahlili.

Kurs ishining ilmiy-metodik asoslarini yoritishda bir nechta adabiyotlardan foydalandik.

A.I.Varobeyvning «Mehnat politexnika ta’limi didaktikasi» nomli qo‘llanmasida o‘quvchilarga politexnik ta’lim berish metodikasining asosiy masalalari vam mehnat darslari bilan bog‘liq holda sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiya ishlari yoritilgan.

D.A.Txorjevskiy taxriri ostida yozilgan «Mehnat ta’limi metodikasi » nomli o‘quv adabiyotida 5-6 sinf o‘quvchilariga mehnat ta’limi berishning vazifalari, mazmuni va tamoyillari yoritilgan. Metal va yog‘ochga qo‘lda ishlov berishga , dastgohlarda ishlashga , elektromontaj ishlarinibajarishga va qishloq xo‘jalik

mashinalarini o'rgatish metodikasi bayon qilingan, shuningdek labaratoriya ishlarini, ishlab chiqarish ekskursiyalarini o'tkazish, kasbga yo'llash ishlarini, o'quvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil qilish masalalari yoritilgan.

K.Davlatov, A.Varobyev, I.Karimov «Mehnat va kasb ta'limi , tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi» nomli o'quv adabiyotida mehnat va kasb ta'limi metodologiyasi, tamoyillari, mazmuni , shakl va metodlari yoritilgan. Ilovalar asosan talabalrning mustaqil ishlari mazmuni bayon qilingan.

Mashg'otlarni tashkil etishda foydalilanidigan Yangi pedagogik texnologiyalarni yoritishda: N.Sayidaxmedovning «Yangi pedagogik texnologiyalar», J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovning «Pedagogik texnologiya asoslari» nomli kitobidan, B.L.Farbermanning «Ilg'or pedagogik texnologiyalar» kitobidan foydalandik.

Mavzuning nazariy asoslarini yoritishda esa I.Nudler,I.K.Tulchin, "Elektrotexnika i elektrooborudovaniye zdaniy" nomli adabbiyotidan eleketrotexnika asoslari va eleketrotexnikaga oid terminlar, elektr asbob uskunalar haqida bino va imoratlarni elektromantaj qilish asoslari haqida ma'lumotlar oldik.

Y.M. Borisov, D.N. Lipatov, Y.N. Zorin. «Elektrotexnika.» kitobidan eleketrotexnikaning asosiy nazariy ma'lumotlariga ega bo'ldik.

D.A.Lepayev. «Uy-ro'zg'or elektr asboblari va mashinalari remonti slesari uchun spravochnik» nomli o'quv adabiyotidan maishiy uy-ro'zg'or asboblaring tuzilishi , ularning ta'miri, ishlatilash soxalari xaqida , texnik xavfsizlik qoidalari xaqida ma'lumotlar oldik.

"Elektrotexnicheskiy spravochnik" T. Z. KnigayetoriY. M. Energoatomizdat.

Kitobidan eleketrotexnikaga oid ko'plab terminlarni aniqladik.

I. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilarga «Boshqaruv va releli elektrapparaturasi » mazusini o‘qitashning nazariy asoslari.

I.1. O‘quvchilarning egallashlari lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy va tashkiliy asoslari.

Kasb ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, kasb ta’limi metodikasida juda muhim o‘rin tutadi. Uning asosini instruktaj va mashqlar kabi metodlar tashkil qiladi.

Psixologik va metodik tadqiqotlar, o‘qituvchilarning mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga oid ilg‘or tajribalarini o‘rganish bu ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli shakllantirishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat ekanini ko‘rsatmoqda: 1) topshiriqning aniqligi, uning maqsadi va bajarish usullarini tushunish; 2) o‘quvchilarda zarur bilimlarning mavjud bo‘lishi; 3) ta’lim metod va usullarining shakllantirilayotgan ko‘nikma va malakalarning xususiyatlariga mosligi; 4) instruktajning samaradorligi; 5) mashqlarning yetarli miqdorda bo‘lishi; 6) o‘quvchilar faoliyatini o‘z vaqtida va obyektiv baholash, o‘quvchilarning baholash natijalaridan xabardorligi; 7) o‘quvchilar faoliyatining aktiv xarakteri.

Mana shu shartlardan eng kamida ikkita xulosa chiqarish mumkin:

- 1) ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda mehnat ta’limining mashqlar va instruktaj metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega, shu nuqtai nazaridan ta’limning an’anaviy metodikasi taqdirlashga molikdir;
- 2) o‘quvchilarning ongli faoliyatini ta’minlash sharti birinchi o‘rinda turadi bu shart an’anaviy metodikada yetarlicha baholanmaydi.

Muvaffaqiyati ko‘p jixatdan o‘quvchilar ta’lim jarayonini qanchalik anglashiga va unda qanchalik aktiv qatnashishlariga borliq ekani anchagina tadqiqotlar natijasida aniqlanadi. Shu sababli keyingi yillarda ta’limda onglilikni oshirishga, o‘quv ishi jarayonida o‘quvchilarni aktivlashtirishga va

ta’limda shunday sharoitlarni vujudga keltirishga yordam beradigan shartlarni aniqlash bo‘yicha ko‘p ishlar qilindi.

Instruktaj va mashqlarga o‘qitish metodlari sifatida qo‘yiladigan hozirgi talablarini to‘g‘ri tushunmoq uchun mehnat ta’limi jarayonida onglilik va aktivlik muammosini fiziologiya, psixologiya va pedagogikaning hozirgi yutuqlari asosida ko‘rib chiqish zarur.

Mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish jarayonida o‘quvchilarning ongliligi faoliyatning dastlabki asosiga tayanadi, u esa o‘z navbatida faoliyat tarziga, ya’ni faoliyatni qanday va qaysi tartibda bajarish haqidagi tasavvurga tayanadi. Fiziologik nuqtai nazardan bunday ta’sir o‘zini-o‘zi boshqarish jarayoni bilan izohlanadi, bu boshqarishning topshirilgan faoliyat bilan uni amalda bajarish o‘rtasida muvofiqlikka erishish va uni saqlash uchun zarurligi I. N. Sechenov tomonidanoq asoslangan edi.

Sechenov kimningdir harakatlariga taqlid qilish jarayonida ko‘nikmalarning shakllanishini tahlil qilib, bunda harakat obrazining katta ahamiyatga molikligini ta’kidladi. Boshqa odamning xarakatini idrok qilish jarayonida subyektda obraz hosil bo‘ladi, u taqlid qilish o‘lchovi bo‘lib xizmat qiladi. Bu obraz o‘quvchilarning harakatlarini belgilaydi, «o‘lchov» bilan qilinayotgan harakat aynan bir xil bo‘lguncha bu xarakatlarni «o‘lchov»ga o‘xshatishga yo‘naltiradi.

Didaktlar mehnat ta’limi amaliyotida psixologlarning inson ixtiyoriy xarakatlarini idora qilishda dastlabki tajriba faoliyatning roli haqidagi ta’limotini rad etib, yo‘naltiruvchi asos mavjud bo‘lganda ixtiyoriy faoliyatga o‘rgatish eng oson bo‘lishini uqtiradilar. Bunda faoliyatning dastlabki asosi murakkabligi ko‘rsatiladi, bu asos umuman ko‘ruv, tovush va boshqa harakat obrazlarini shuningdek uni bajarishning ma’lum ketma-ketligini nazarda tutadi. O‘qitish metodikasi jihatidan harakatning yo‘naltiruvchi asosi oxirgi mahsulot namunasini, dastlabki material va uni oxirgi mahsulotga aylantirish

qoidasini, har bir operatsiyaning bajarilishini nazorat qilish harakatini ham o‘z ichiga oladi.

Didaktik tadqiqotlar mexnat xarakatlarini namoyish qilishdan mohirona foydalanish, o‘quv-metodik hujjatlarni qo‘llash va hokazo harakatlarning yo‘naltiruvchi asoslarini shakllantirishga yordam berishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, yo‘naltiruvchi faoliyat insonning ixtiyoriy harakatlarini idora qilishdagi roldan kelib chiqib mehnat ko‘nikma va malakalarini ongli o‘zlashtirishning sharti deb qarab, instruktaj va mashqlarga ularni shakllantiruvchi asosiy metodlar sifatida talablar qo‘yish mumkin. Asosiy talablar jumlasiga o‘quvchilarining o‘zini-o‘zi nazorat qilishni ta’minlash, o‘quv-texnik hujjatlardan foydalanish, o‘quvchilarining fan asoslari bo‘yicha bilimlariga tayanish, muammoli ta’limni qo‘llashni kiritish mumkin.

Mazkur talablarni bajarish bo‘yicha hozirgi zamon didaktik tadqiqotlarga tayanuvchi ba’zi tavsiyalarni ko‘rib o‘tamiz.

Hozirgi mehnat ta’limi metodikasining rivojlanishi o‘nlab yillar davomida to‘plangan va ko‘p avlodlar amaliyotida sinalgan tavsiyalar tanqidiy analiz qilinishi bilan xarakterlanadi. Texnik vositalardan foydalanilishi tufayli bunday analiz qilish mumkin bo‘lmoqda.

Tadkiqotchilar texnik vositalar sirdan kuzatish mumkin bo‘lmaydigan jarayon va xodisalarni aniq idrok qilinadigan jarayon va hodisalarga aylantira olishini ta’kidlamoqdalar. Bunga texnik vositalar insonning sezgi a’zolariga qaraganda yaxshi idrok etishi va shu bilan birga tadqiq qilinayotgan jarayon va hodisalarni bevosita kuzatish uchun zaruriy tezlik va aniqlikda qayd qilish imkonini berishi sababli erishiladi.

Texnik vositalar o‘rganilayotgan xodisalarni yuqori obyektiv aniqlikda aks ettirib, keyin ularni sezgi organlari bilan to‘la boshlang‘ich ma’lumotlar olish uchun zaruriy tezlik va fazoviy mashtabda takrorlash imkonini beradi. Har xil bioelektrik asboblar tufayli inson organlarining fiziologik holati muhim

ma'lumotlarni olish va shu tariqa mehnat harakatini boshqarish jarayonlarini ochishga yaqinlashish mumkin.

Kasb hunar kollejlarida malakali, yetuk, jahon talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash sifati asosan ishlab chiqarish ta'limining qanday yo'lga qo'yilganligi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarish ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarda kasbiy bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishdan iborat. Bu asoslar shunday poydevorki, kasb hunar kollejlarining bitiruvchilari unga tayangan holda mustaqil ish jarayonida o'z ko'nikmalariini oshiradilar.

O'quvchilar kasbiy ko'nikmalarining asoslari ularning ishlab chiqarish faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlari bilan ifodalanadi: o'quv ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish sifati; mehnat unumdorligi; ishning samarali usullarini bajara bilish uquvi, shuningdek ishlab chiqarish ilg'orlarining mehnat usullarini egallash; zamonaviy texnika va texnologiyadan foydalana bilish; ishlab chiqarishdagi mustaqillik; amaliy vazifalarni hal qilish uchun nazariy bilimlardan foydalana bilish; mehnatga ijodiy munosabatda bo'lish; mehnat madaniyati; ish jarayonida mehnat havfsizligi qoidalariga rioya qilish.

O'quvchilarda elektrotexnikaga oid bilim va ko'nikmalarni asoslarini shakllantirish ishlab chiqarshi ta'limi ustasi faoliyatining mohiyatini tashkil etadi. Ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirishning barcha vazifalariga shu nuqtai nazardan yondashish zarur.

Ishlab chiqarish ta'limi kasb hunar kollejlarida malakali ishchilar tayyorlashdagi o'quv jarayonining tarkibiy qismidir. Lekin o'quv jarayonining bu qismi g'oyatda o'ziga xosdir. Ishlab chiqarish ta'limining o'ziga xosligi shundaki, o'qitish jarayoni o'quvchilarning elektrotexnikaga oid bilim va ko'nikmalari va unumli mehnati jarayonida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish ta'limining bu xususiyati uning mazmuni, formalari, metodlari va vositalarini belgilaydi.

Kasb hunar kollejlaridagi o'quv jarayonining bir qismi hisoblangan ishlab chiqarish ta'limi ustasining faoliyatiga va o'quvchilar faoliyatidan tashkil topadi.

Yo‘riqnomalar berish va o‘qish bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning tizimli tarzda o‘qishi va bilimlarini o‘zlashtirishi uchun ongли ravishda ma’lum maqsadni ko‘zlab, mehnat qlishining tashqi va ichki tomonlariga ega. Ishlab chiqarish ta’limi jarayonida o‘quvchilar o‘qishning tashqi tomoni ularning o‘quv mehnati faoliyatida namoyon bo‘ladi. O‘qishning ichki tomoni esa o‘quv ustasining ko‘rsatmalarini idrok qilish va anglashni hamda o‘z-o‘zini nazorat qilish usullarini o‘quv hamda ko‘nikmalarni shakllantiradi.

O‘quv usta faoliyatining mohiyati bo‘lg‘usi mehnat jarayoni, harakatlarni bajarish va nazorat qilish shartlari, usulari hamda xususiyatlari to‘g‘risida o‘quvchilarda keng tasavvur hosil qilishdan iborat.

O‘quvchilarning ishlab chiqarish ta’limiga o‘quv usta rahbarligining mazmuni, formalari, metodlari va vositalari uning aniq mazmuniga, o‘qish davriga, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga, o‘qish sharoitlariga bog‘liq.

Talabalarning elektrotexnikaga oid bilim va ko‘nikmalarni va kasbiy mutaxassislik fanlariga mos mashg‘ulotlarni tashkil qilish, ularning mustaqil holda bajarishlari mumkin bo‘lgan kasbiy ko‘nikma va malakalarini ko‘rib chiqamiz.

Birinchi amaliy mashg‘ulot. Mashg‘ulotni kirish yo‘riqnomasi va asosiy yo‘riqnomalar asosida tashkil etsak maqsadga muofiqdir. Avval talabalarga elektrotexnikaga oid bilim va ko‘nikmalarni egallashlari jarayonida mustaqil ishlashlari uchun lozim bo‘ladigan kirish yo‘riqnomasi o‘qituvchi tomonidan amaliy kerakli mehnat usullari ko‘rsatilgan holda beriladi hamda, keyin elektrotexnikaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan amaliy yo‘riqnomalar beriladi va talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil amaliy ish usullari, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan xatoliklar, ularni tuzatish yo‘l-yo‘riqlari ko‘rsatib o‘tiladi. Mashg‘ulotni bunday tashkil qilish mustaqil o‘rganiladigan usullarning o‘zlashtirilishi va mustahkamlanishiga imkon beradi, shuningdek yo‘riqnomalar berishning ikkinchi qismida mashqlarning birinchi

navbatdagisini bajarib, bo‘lganlaridan keyin talabalarga bir oz dam olish imkoniyatini yaratadi.

Kasb- hunar kolleji o‘quvchilarida elektrotexnikaga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishlari uchun quyidagi ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim xisoblanadi:


- 1)Mehnat va ko‘nikma malakalari-Faoliyatni bevosita materiallarni o‘zgartirish ko‘nikmasi asosida tashkil qilish:1.Aqliy ko‘nikmalar.2.Sensor ko‘nikmalar.
- 2)Amaliy ko‘nikma va malakalar-Mavjud moddiy muhitni bevosita unaltirilgan ko‘nikma va malakalar.
- 3)Kasbiy ko‘nikma va malakalar-Mehnat harakatlarini bajarishning yuqori sifatini ifodalaydi. 1.Maxsus ko‘nikmalar. 2.Ishlab chiqarish ko‘nikmalari. 3.Kasblar bo‘yicha nazorat.
- 4)Umumfaoliyat ko‘nikma va malakalar-Ishchi xolatini saqlash,tallafuz,xusnixat va ax.
- 5)Umummehnat ko‘nikma va malakalar-Ishni rejalashtirish va tashkil etish o‘z-o‘zini nazorat qilish va h.1.Konstrukturlik.2.Texnik ko‘nikmalar.3.Tashkiliy texnik.4.Tezkor nazorat.
- 6)Umumtexnik ko‘nikma va malakalar-Chizmalarni bajarish va o‘qish, texnologik hisoblarni amalga oshirish .tkxnologik qurilmalarni rostlash.va h.
- 7)Politexnik ko‘nikma va malakalar-Texnologik obyektlar ishlab chiqarish jarayonlarining umumiyligi va xususiy holatlari to‘g‘risidagi bilimlarning Amaliy qo‘llanilishi.va h.

I .2. «Boshqaruv va releli elektrapparaturasi » mazusini o‘qitishning mazmuni.

Hozirgi vaqtida avtomatikada eng keng tarqalgan tuzilmalardan biri reledir. Relega kirish signal berilganda, chiqish signali sakrash bilan o‘zgaradi.

Elektromagnit neytral relening tuzilishi 1-rasm-da ko‘rsatilgan. Relening magnit tizimi o‘zak, yarmo va yakordan iborat. Chulg‘amdan tok o‘tganda magnit oqim hosil bo‘lib, yakorni o‘zakka tortadi. Natijada yakor boshqa tomoni bilan kontaktlarni bosib, ularni tutashtiradi yoki ajratadi. Kontaktlar esa har xil elektr qurilmalarni boshqaradi.

Uyurma toklarni kamaytirish uchun o‘zgaruvchan tok relesi magnit tizimi qismlari ingichka po‘lat listlardan yig‘iladi. O‘zgarmas tok relesining magnit tizim qismlarini yaxlit elektrotexnik po‘latdan qilish mumkin. Uzgaruvchan tok sekundiga 100 marta o‘z yo‘nalishini o‘zgartiradi. Shuning uchun yakor bir sekundda 100 marta o‘zakdan




*1-rasm. Elektromagnit neytralln rele: 1—o‘zak, 2— yarmo, 3—yakor, 4—
chulg‘am, 5—prujina, 6— kontakt.*

Ajraladi va yana tortilishga qarakat qiladi. Natijada shovqin paydo bo‘lishi mumkin. Shovqinni yo‘q qilish uchun

o'zak kesimi bo'yicha butunlay yoki kesimning ma'lum qismi bo'yicha qalin mis simdan yasal-gan dempferli o'ram deyiladigan o'ram bilan tutashtiriladi. Magnit oqim shu o'ramni kesib o'tib, unda EYUK va tok hosil qiladi. Bu tokning oqimi F_d va asosiy magnit oqimning F_a boshlangich fazalari xar xil buladi. Asosiy magnit oqim noldan o'tgan paytida dempfer o'ramning oqimi nolga teng bo'lmaydi va yakorni tortilgan holatda ushlab turadi.

2. Qutblangan rele

Oddiy dielektromagnit rele o'zgarmas tokning yo'nalishini sezmaydi. Buning



uchun relening magnit tizimiga doimiy magnit qo'shiladi. Bunday rele qutblangan rele deyiladi (9-rasm). Doimiy magnit asosiy magnit F_a oqimini hosil qiladi. Bu oqim kattaligi bir xil, lekin qarama-qarshi tomonga yo'nalgan ikkita oqimga bo'linadi (F_{a1} va F_{a2}), Shuning uchun boshqaruvchi signal yo'qligida magnit tizimning tirkishida yakor o'rta holatda bo'ladi. Chulg'amga boshqaruvchi signal berilganda o'zakda yana bitta F_b oqim hosil bo'ladi. O'zakning chap va o'ng tomonlaridagi magnit oqimlar quyidagicha ifodalanadi:

$$\mathbf{F}_{ch} \cdot \mathbf{h} \cdot \mathbf{F}_{a1} + \mathbf{F}$$

$$\mathbf{F}_o \cdot \mathbf{h} \cdot \mathbf{F}_{a2} - \mathbf{F}_b \quad (X1-2)$$

O'zakning chap tomonida magnit oqimi kuchliroq bo'lgani uchun yakor chap tomonga burilib 2-rasm. Kutblanish rele: 1— kontakt bilan tutashadi. Agar chulg'am, 2—qutblar, 3—yakor, 4—quzg'aluvchan kontakt.boshqaruvchi signalning yo'nalishi o'zgarsa yakor o'ng tomonga burilib o'ng kontakt bilan tutashadi.

3. Vaqt relesi

Kontaktlari ma'lum kechikish bilan tutashadigan (ajraladigan) relega vaqt relesi deyiladi. Vaqt relesining quyidagi turlari mavjud:

- 1) elektromagnit vaqt relesi, ulardan kechikish vaqt soat mexanizmi yerdamida hosil qilinadi;
- 2) elektr pnevmatik vaqt relesi ularda kechikshi vaqt silindrini havo ma'lum diametrli teshikdan chiqish vaqtiga bogliq, teshikning diametrini o'zgartirib, relening kechikish vaqtini o'zgartirish mumkin;
- 3) elektr mashinali vaqt relesi ularda kechikish vaqt elektr dvigatelning aylanish soniga proporsional bo'ladi;
- 4) elektron vaqt relesi — ularda kechikish vaqt ko'pincha kondensatorning zaryad va razryad vaqtiga proporsional bo'ladi.

Tuzilishn va nima maqsadda yaratilganligiga ko'ra turlicha bo'lgan elektr yuritmalarini boshqarish vazifalarini bajarish uchun elementlarning tarkibi xamda murakkablik darajasi bo'yicha bir-biridan farq kiluvchi tegishli boshqarish sistemalari talab qilinadi.

Ishga tushirish, yuritmani bir tezlikdan boshqa tezlikka o'tkazish, reverslash, sekinlatish va boshqa nisbatan oddiy vazifalarini, agar ba'zi apparatlarning ishga tushishlari soni bir soat davomida uncha katta bo'lmasa, rele-kontaktli apparatlar asosida qurilgan boshharish sistemalari muvaffaqiyat bilan bajaradi.


Relo-kontaktli sistemalar ochiq turdag'i sistemalarga kiradi. Bunday sistemalarning o'ziga xos xususiyati rostlovchi ta'sirning rostlanadigan kattalikka mutlaqo bog'liq emasligidir. Boshqacha kilib aytganda, ochiq sistsmada boshqaruvchi axborot manbadan qabul qilgichga tomon bir yo'nalishda ketadi, teskari aloqa esa mavjud emas.

Boshqarish sxemalari xaqida umumiylar ma'lumotlar. Ilgari ta'kidlanganidek, elektr qurilmalar qismlarining o'zaro muvofiq tarzda ishslash

prinsipini o‘rganishda, asosan, elektr qurilmaning barcha elemsntlari va ular orasidagi aloqalar kiritilgan prinsipial sxemalaridan foydalaniлади.

«Sxemaning elementlari» tushunchasiga apparatlar, mashinalar, asboblar yaxlitligicha yoki ularning sxemada muayyan vazifalarni bajaruvchi qismlari (g‘altaklar, kontaktlar, saqlagichlar va b.) kiradi. Ayrim elementlar shartli grafik belgilashlar bilan tasvirlanadi, bunda ularni elementlarning qurilmadagi haqiqiy joylashishiga e’tibor bermagan holda sxemalarii chizish va o‘qish qulay bo‘lishigagina asoslanib jamlashtiriladi. Masalan, kontaktoring elektr dvigateli tarmoqqa ulaydigan kuch kontaktlari kuch zanjiri tarkibiga kiradi, mazkur kontraktoring g‘altagi esa boshqarish zanjirida joylashgan (3-rasmga qarang).

Elektr apparatlarda tutashtiruvchi (t) va ajratuvchi (a) kontaktlar bo‘ladi. Agar apparat uzilgan holatda bo‘lsa (elektromagnit apparatning g‘altagida tok yo‘q, prujina bilan qaytariladigan knopka bosilmagan), u holda unnnng tutashtnruvchi kontaktlarn ajralgan, ajratuvchi kontaktlari esa tutashgan holatda bo‘ladi. Kontaktlarning bunday holati normal yoki boshlang‘ich holat deb ataladi; bunday holatda ular prrinsinial sxemalarda tasvirlanadi. Shartli grafik belgilashlardan tashqari, sxemalada harfiy va raqamli belgilar ham qo‘llaniladi. Har bir apparat o‘zning harfiy belgisiga ega bo‘lib, u sxemaning



mazkur apparatga konstruktiv

3-rasm.

jihatdai tegishli bo‘lgan barcha elementlariga 4-rasmta talluqlidir. Agar bunday apparatlar bir nechta bo‘lsa, harfiy belgidan keyin aparatning tartib nomeri qo‘yiladi. Masalan RP2 belgi KXYAS (konstruk-torlik hujjatlarinnng yagona sistemasi) bo‘yicha quyidagicha tushuniladi: 2- nomerli oraliq rele.


Sxemalarning o‘qilishini yengillashtirish maqsadida ularda dvigatel va generatorlarning kuch zanjirlari (ushbu zanjirlar ba’zida asosiy zanjirlar deb ataladi) va boshqarish zanjirlari ajratib ko‘rsatiladi. Kuch zanjirlari yo‘g‘on chiziqlarda, boshqarish zanjirlari esa ingichka chiziqlarda tasvirlanadi.

Uzgarmas tok elektr dvigatellarini ishga tushirishni boshqarish sxemalarining tipaviy uzellari. Elektr dvigateli ishga tushirish jarayonida tezlik, tok, aylantiruvchi moment va rejimning boshqa xarakteristikalarini o‘zgaradi.

Parallel uyg‘otishli o‘zgarmas tok dvigatelining ishga tushish xossalari hamda ishga tushirish jarayonini ishga tushirish reostati yordamida qo‘l bilan boshqarish ko‘rib chiqilgan edi.

Ishga tushirishni avtomatlashtirish ishga tushirish jarayonini boshqarishni yengillashtiribgina qolmay, balki operator yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarni bartaraf qilish imkonini beradi, mexanizmlarning ish unumini oshiradi.

10-rasmda ishga tushirish rezistoriniig qarshiligi uch pog‘onadan iborat ishga tushirish diagrammasi ko‘rsatilgan. Pog‘onalar tok I_1 va I_2 kattaliklarning joiz qiymatlari doirasida o‘zgarishiga mo‘ljallangan bo‘lib, bunda tezlik ortishi tufayli tok I_1 dan I_2 gacha ravon kamayadi, I_2 dan I_1



4- rasm

gacha esa ishga tushirish reostatinng pog‘onasi uzib qo‘yilishi natijasida sakrab kamayadi. Tokning o‘zgarish chegaralari ikki shart (nagruzka turkilarining joiz qiymati xamda ishga tushirish jarayonining umumiyligi vaktini iloji boricha ko‘proq qisqartirish) ga ko‘ra tanlanadi.

Dvigatelni qisqa tutashuv va o‘ta yuklanishlardan ximoyalash uchun sxemada maksimal himoya (RM_1 , RM_2 , RM_3) va kuchlanishning yo‘l qo‘yib bo‘lmas darajada kamayishidan himoya ko‘zda tutilgan.

II. Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilariga «Boshqaruv va releli elektrapparaturasi» mavzusini o‘qitishning metodik asoslari

2.1. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarga elektrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish shakllari va metodlari.

Kadrlar tayyorlash o‘quv muassasalarida shakillanayotgan inovatsion texnologiyalar-bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilari uchun, kasb ta’limi va uni o‘qitish metodikasi yuzasidan ko‘p yangi atamalar, iboralar, so‘zlar ularni mehnat ta’limi darslarida, mehnat ta’limi metodikasida qo‘llanishi-yangi axborot texnologiyalarni takomillashtirib borishga zamin yaratiladi hammada yangicha ifodalashga olib keladi.

Bu borada:

1.Pedagog-bu yuqori madaniyat va ma’naviyatli mehnat ta’limi yuzasidan mutaxassis. U o‘z kasbini (fanini), tegishli sohaga oid fan va texnikani hamda ishlab chiqarish texnologiyasini, umumiylar va kasbiy pedagogika hamda ruhshunoslik, umumiylar ta’lim va tarbiya ishining uslubiy asoslarini zamon talabalari darajasida biladigan shaxsdir.

2. Darsliklar –o‘quvchilar uchun o‘quv dasturning barcha jihatlarini mujassamlab yoritib beruvchi asosiy axborot olish manbai hisoblanadi. Darsliklar tajribali mutaxassislar yoki ularning jamoasi tomonidan yoziladi. U juda ko‘p va murakkab talabalarga javobberishi mumkin.

3.Umumta’lim o‘quv predmetlar –ixtissosligi qarab o‘rganilib, ularning asosiy vazifasi shu sohani to‘laligiga emas, balki uning asoslarini tahsil oluvchi mushohada etish uchun ochib berishdan iborat.

4. Maxsus fanlarni o‘rganish-tahsil oluvchilarda o‘quv yurtining maqsadi va vazifalariga ko‘ra mutaxassis tayyorlashda uning kasbiy faoliyati uchun zarur va yetarli darajadagi bilim, ish-harakat usullari hamda shaxsiy fazilatlarni tarkib toptirishni ko‘zda tutadi.

5.Bilim-o‘rganilayotgan obyekt haqida uning muhim xususiyat va sifatlarini, obyektni ma’lum jihatlarini biz tushunchalarda ifodalaymiz va o‘rganamiz. Demak, tushunchalar tizimini o‘zlashtirish orqali o‘rganilayotgan obyekt haqida bilimga ega bo‘lamiz. Bilimlarni haqiqiyligi va to‘g‘riliqi bevosita amaliyotda qo‘llanilishi bilan aniqlanadi. Bilimlarni qo‘llanishi o‘z navbatida ma’lum ish-harakat usullarining maqsadga muvofiqligi, tezligi, aniqligi va shu kabilarga ko‘ra kasbiy mahorat darajasi aniqlanadi. Kasbiy malaka darajasini shartli ravishda ko‘nikma shaklida talqin etiladi. Agar bilimlar amaliyotida ma’lum mantiqiy ketma-ketlikda, lekin o‘ylab ma’lum ma’noda sekinroq bajarilishi ko‘nikma sifatida tez fursatlarda bajarilishi malaka deb talqin etiladi.

6. Tarbiyaviy maqsad-o‘rganilayotgan obyektni jamiyat va tabiat hayoti manfati uchun qanday ahamiyatga egaligini ko‘zda tutib, o‘quvchi (talaba) shaxsida shakillanishi lozim bo‘lgan shaxsiy (ijobiy yoki salbiy) xis hamda fazilatlarini ko‘zda tutuadi.

7.Rivojlantiruvchi maqsad-tahsil oluvchining dasturiy materialni o‘zlashtirishi natijasida bilim, tajribasi, odob-ahloqi vav shu kabi shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish bilan bir vaqtda mantiqiy tafakkur (fikr yuritish) qobiliyatlarini shakillantirishni ko‘zda tutadi. Fikr yuritish o‘rganilayotgan obyektni muhim o‘ziga xos xususiyatlarini anglab olish uchun diqqatni harakatlanishini talab etadi. Umuman olganda ta’lim-tarbiya ishining maqsadlari ma’lum natijani ko‘zda tutib, bu natijalar mos mezonlar bilan baholanadi.

8.Pedagogik mahorat-kasbiy tayyorgarlikning shunday darajada egallanganligi bilan bog‘liqki, unda qo‘yilgan maqsadga o‘qituvchi (murabbiy, ustoz)ning o‘zlashtirgan butun bilimlari, tajribasi va aqliy salohiyatidan foydalaniб

imkon, ishlar yuqori sifat va samaradorlikka ega bo‘linadi. Yuksak pedagogik mahorat bevosita shu va boshqa, qaysi so‘zni, atamalarni, tushunchalarni olmasak, ular mehnat ta’limi o‘qituvchilarni shaxsiy fazilatlarini ifodalashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Kasb xunar kollejlarida elektrotexnikaga oid bili, ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni turli shakllar va turli usullar bilan amalga oshiriladi. O‘qitish shakllari deganda o‘quvchilarning kasb hunar kollejlarida elektrotexnikaga oid bili, ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quv ishlab chiqarish faoliyatining xarakterini belgilovchi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish usullari, shu faoliyatga rahbarlik qilish va mashg‘ulotlar tuzilishi tushuniladi. O‘quv jarayonini tashkil qilish shakllari bilan o‘quvchilarning o‘quv ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish shaklalarini bir-biridan farq qila bilish kerak.

Elektrotexnika o‘quv ustaxonalarida o‘quvchilarning elektrotexnikaga oid bili, ko‘nikmalarni shakllantirishni tashkil qilishning asosiy shakli amaliy darsdir. O‘qitish dars ko‘rinishda tashkil qilinganda rahbarlik rolini o‘quv usta o‘ynaydi. Ishlab chiqarish ta’limi darsi uchta asosiy element: kirish instruktaji, o‘quvchilar mashqlari va joriy instruktajdan iborat.

Elektrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida ko‘p hollarda shunday metodlar qo‘llaniladi og‘zaki metodlar, ko‘rgazmali va amaliy metodlardir.

Reproduktiv metodlar qo‘llanganda o‘quvchilar elektrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni tayyor holda o‘zlashtiradilar, o‘qituvchi va o‘quv usta bergen namuna bo‘yicha aqliy va amaliy harakatlar qiladilar. Muammo izlash metodini qo‘llash uchun turlicha murakkablikdagi bilish va amaliy masalalarni yechishga o‘quvchilarning faol qo‘shilishlari talab etiladi. Muammo izlash metodlari o‘quvchilarning ijodiy o‘quv ishlab chiqarish faoliyati ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli rivojlantiirshga imkon beradi.

Pedagogik nazariya va amaliyotda o‘quv jarayonining reproduktiv va muammo izlash xarakteridagi nazariy ta’limga tatbiqan ko‘rib chiqiladi. Biroq, bunday yondashish ishlab chiqarish ta’limi jarayonida ham qo‘llanilishi shubhasizdir.

Kasb hunar kollejlarining ko‘plab o‘quv ustalari o‘quvchilarning elektrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish metodlarini qo‘llash yo‘llarini faol qidirmoqdalar. Ular evristik suhbatdan keng foydalanmoqdalar. Bunda o‘quvchilar tayyor ko‘rsatmalar va tavsiyalar olmasdan, o‘quv usta bilan muhokama qilib, ularni hal etishadi. Bunda o‘quvchilar uskunaning ish rejimini mustaqil belgilashadi, zarur texnik hisoblashlarni bajarishadi, texnik adabiyot, instruksiyalar va boshqa manbalardan ma’lumotlarni topishadi. Bunda o‘quvchilarda elektrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish ularning umumtexnik va maxsus predmetlariga oid bilimlaridan mehnat faoliyatni muqobil rejorashtirish, tartibga solish va nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga asoslanadi.

1-jadval

| O‘quvchilarning reproduktiv faoliyati | O‘quvchilarning izlash (produktiv) faoliyati |
|--|--|
| Usul va operatsiyalarni o‘quv usta ko‘rsatib bergen namuna bo‘yicha bajarish | Yangi mehnat usullarining xususiyatlarini ko‘rib chiqishda faol ishtirop etish lozim |
| Usul va operatsiyalarni instruksion xaritalar ko‘rsatmalariga muofiq bajarish | Topshiriqlarni instruksion ko‘rsatmalarisiz, usullarning bajarilish izchilligini ochib beruvchi xarita bo‘yicha bajarish kerak, Topshiriqlarni bajarishning texnologik izchilligi va rejimlarini mustaqil aniqlash |
| Ishlarni tayyor instruksion-texnologik xarita bo‘yicha bajarish | |
| Mukammal instruksiya bo‘yicha trenajyorda mashqlar bajarish | |
| Ustasning ko‘rsatmalariga binoan ish jarayonini va natijalarini nazorat qilish | Trenajyorlarda har xil rejimlar va vaziyatlarda mustaqil ishslash |

| | |
|--|--|
| | <p>lozim</p> <p>O‘quv-ishlab chiqarish ishi jarayonini va natijalarini mustqail nazorat qilish kerak</p> |
|--|--|

O‘quv ustanning o‘rgatish faoliyatiga va o‘quvchilarinng elekrotexnikaga oid bilim, ko‘nikmalarni o‘rganish faoliyatiga muayyan qarama-qarshiliklar xosdir. Umumelektrik ishlarida ishlab chiqarish ta’limi asosan o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilishning guruqli metodida o‘tkaziladi. Bunda o‘quv usta odatda bir yo‘la hamma o‘quvchilar bilan birga ish olib boradi. O‘quv ustanning ko‘rsatmalarini o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishi, ularda o‘quv va ko‘nikmalarning shakllanishi esa har bir o‘quvchida dastlabki tayyorgarligiga, aqliy va jismoniy rivojlanganligiga o‘qishga qiziqishga, irodasiga va boshqa individual xususiyalariga qarab mutlaqo individual tarzda kechadi.

Guruhda ta’lim – tarbiya jarayonining samarali bo‘lishi, shu darsga mos metodning tanlanishi bilan uzviy bog‘liqdir. O‘qituvchilarning birbiridan farq qiluvchi metodlar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishlari, dars jarayonida shu metodlardan samarali foydalana olishiga imkon beradi. Boshqacharoq qilib aytganda, o‘qituvchi turli xil metodlardan ham nazariy, ham amaliy tarzda foydalana olishi zarur.

Kasb hunar ta’limida ta’lim metodlarining guruhlari:

1. Og‘zaki metod:

- a. hikoya ;
- b. o‘quv materialini og‘zaki bayon qilish ;
- c. suhbat ;

2. Ko‘rgazmali metod:

- a. ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiya tashkil qilish.

b. mehnat amallarini ko‘rsatib berish.

3. Amaliy usullar:

- a. mashqlar;
- b. laboratoriya – amaliy ishlar;
- c. texnik adabiyotlar, o‘quv texnika va texnologiyalariga oid xujjatlar ustida ishslash;
- d. o‘qitishda texnika vositalaridan foydalanish;
- e. dasturlashtirilgan o‘qitish va kontrol – o‘rgatuvchi qurilmalaridan foydalanish.

Quyida dars reja va istiqbolli taqvimiylar mavzuli reja bilan tanishib chiqamiz:

II.2. Kasb-hunar kollejlarida o‘quvchilarga «Boshqaruva va releli elektrapparaturasi» mazusini o‘qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta’limning yangi modeli o‘z ifodasini topgan va uning kelajakdagisi "Portlash effekti" ilmiy asoslab berilgan. Modelni amaliyatga tatbiq etish o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy boqliqdir. Bir so‘z bilan aytganda "Milliy dasturda o‘quv - tarbiyaviy jarayonni ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlash"ni e’tirof etilishi barcha jabqalardagi bilimlar doirasida yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Pedagogik texnologiya (PT) - shunday bilimlar soqasiki, ular yordamida o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro bog‘langan faoliyati yangicha tarzda shakllanadi. Insonparvarlik tuyg‘ulari tizimli qolat kashf etib, o‘quvchiga bilimga chanqoqlik, eqtiyoj, Vatanga meqr - muqabbat, milliy va umumbashariy qadriyatlarga e’tiqod kabi xislatlarni tarbiyalab beradi.

Umuman "Texnologiya" so'zi birinchi marta texnikaviy taraqqiyot bilan boqliq qolda 1872 yilda fanga kirib kelgan. U yunoncha ikki so'zdan "texos" (techne)- sa'nat qunar va "Logos" (Logos) - fan so'zidan tashkil topgan. "qunar fani" ma'nosini anglatadi, keyinchalik bu so'z boshqa soqalarning terminologiyasida qam qo'llanila boshladи. Shu bilan birga "Texnologok jarayon", "O'qitish texnologiyasi", "Ma'lumot texnologiyasi", "O'quv jarayoni texnologiyasi" kabi atamalar ko'rinishida pedagogik adabiyotlarda qam uchraydigan bo'ldi.

Albatta bu atamalarning qar biri o'z ta'rifiga ega va bu ta'riflar ayrim umumiylikka ega bo'lsa-da, lekin o'ziga xos tushunchalar.

Jumladan, o'qitish texnologiyasi pedagogik texnologiyaga yaqin tushuncha bo'lsada, aynan o'xshash ma'noni anglatmaydi. Chunki u ma'lum predmet, mavzu va savollar doirasidagi aniq o'quv materialining o'zlashtirish yo'lini muayyan texnologiya asosida ifoda etadi. Boshqacha izoqlaganda xususiy metodika bilan bir jinslidir.

qozirgi kunda o'qituvchilar ko'p qollarda metodikani pedagogik texnologiyasidan ajrata olmayotganligi sababli ma'lum noaniqliklar paydo bo'lmoqda. Shu boisdan bu tushunchalarni aniqlashtirish kerak bo'ldi.

Rus olimasi N.F.Talizina texnologiyani "belgilangan o'quv maqsadiga erishishning oqilona usullarini aniqlashdan iborat" deb tushuntiradi.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinish turibdiki, PT belgilangan maqsad va mazmun aosida o'quv jarayonini loyiqlash sifatida talqin etilayapti. Bu bir jiqtadan to'g'ri, lekin moqiyat jiqtidan bir yoqlama yondashuv, ya'ni o'quvchi shaxsi inkor qilinmoqda. Bu kamchilikni birinchi bo'lib payqagan akademik V.P.Bespalko - "PT bu o'qituvchi maqoratiga bog'liq bo'limgan qolda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyiqasidir" deb ta'riflaydi. Bu ta'rif mazmunidan quyidagi muqim omillarni ko'rsatish mumkin:

- PT ning asosiy moqiyati va kafolatlanish darajasi loyiqlayotgan kishining maqorati va iqtidoriga bog'liq;
- loyiqlangan PT o'quvchi (talaba) lardan ma'lum ijtimoiy tajriba elementlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi;
- loyiqlangan tayyor PT ni amalga oshirish mutaxassis bo'lмаган shaxs uchun qam katta qiyinchilik tug'dirmaydi;
- fan (mavzu)ning asosiy mazmuni to'g'ri va oqilona tarzda loyixalangan PT ni amalga oshirish o'qituvchi (nazoratchi) dan katta maqorat talab qilinmaydi.

Mamlakatimizda mutaxassislarning ilmiy saloqiyati va imkoniyatlari yetarli ekanligini qisobga olsak "yangi" cha bir tarzda amalga oshirish zaruriyatini beradi. Shu ma'noda nazariya va amaliyot birlikning ta'minlanishini PT ning asl moqiyatini aniqlashga imkon beradi.

Yangi PT pedagogika fanining aloqida tarmog'i sifatida tizim deb emas, balki nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtiruvchi tizim deb qarash maqsadga muvofiqdir.

PT atamasiga "yangi" so'zini qo'shib ishlatalishi qam bugungi isloqotlarimiz, to'g'rirog'i, "Milliy dastur"ga taqaladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim - tarbiyaning maqsadini yangi yo'nalishga burdi, ya'ni: "O'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xolis etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash" deb belgilanadi. Demak, ta'lim tarbiyaning maqsadi butunlay yangilanadi, unga mos qolda mazmunining qam pedagogik jarayonining qam yangilanishi tabiiydir.

Natijada ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan yangi texnikaviy, axborotli, poligrafik, audiovizualli vositalar yangicha metodik yondashuvlarni va yangi PT ni taqozo etadi.

Bir so‘z bilan aytganda "Milliy dasturi"da ko‘rsatilgan erkin

shaxsni shakillantirish muammosi o‘quv tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani joriy qilish orqali amalga oshiriladi. Albatta, bu jarayonning ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylatirish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Chunki, ijtimoiy tajriba elementlari bilan ko‘nikma, ijodiy faoliyat obyektiv borliqqa munosabatlar - pedagogik jarayon maqsulidir va ma’lum pedagogik tizim doirasida shakllantiriladi.

Milliy dastur va mavjud pelagogik talablardan foydalanib, pedagogik tizim xususiyatlarini quyidagi tarzda ifodalash mumkin.

Pedagogik tizim quyidagi ikki tushunchani qamrab oladi: didaktik masalalar va ularni amalga oshirishning pedagogik texnologiyalari (PT). Didaktik masalalar pedagogik tizim doirasida inson faoliyatining muqim soqasi sifatida aniq va unga erishish uchun shart-sharoitlar xamda bu faoliyat uchun axborotlar bo‘lishi kerak.

qar bir didaktik masala pedagogik tizimda o‘ziga mos keladigan PT elementlari bilan qal qilinadi, ular: didaktiv jarayon, o‘qitishning tashkiliy shakllari, xamda o‘qitishning texnik vositalari(O‘TV).

Darqaqiat ta’lim taraqqiyotining qarakatlantiruvchi kuchi- bu o‘zida didaktik masalalar va PT ni mujassamlashtirgan pedagogik tizim qisoblanadi. PT ning muvaffaqiyatli loyiqlash va yakuniy natijasining kafolatlanishi o‘qituvchining didaktik masalalar moqiyatining anglab yetish darajasiga va darsda to‘g‘ri belgilab olishga bog‘liqdir.

Yangi PT ning asosiy moqiyati o‘qituvchi va o‘quvchi(talaba) larning o‘zaro xamkorligi va uzviy ravishda faollik ko‘rsatishidadir. Chunki agar darsda o‘qituvchi bosh figura bo‘lib qolsa o‘quvchilar ma’suliysi va javobgarlik qissi susayadi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushoqada qilish, xulosa chiqarishdan yiroqda bo‘ladi.

Xulosa

Kasb-xunar kollejlarida o‘quvchilarning Boshqaruv va releli elektrapparaturasi mavzusiga oid bilim va ko‘nikmalarni va kasbiy mutaxassislik fanlariga mos mashg‘ulotlarni tashkil qilish, ularning mustaqil holda bajarishlari mumkin bo‘lgan kasbiy ko‘nikma va malakalarini ko‘rib chiqdik.

Kasb- hunar kolleji o‘quvchilarida Boshqaruv va releli elektrapparaturasi mavzusiga oid bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishlari uchun quyidagi ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim xisoblanadi:

- 1)Mehnat va ko‘nikma malakalari-Faoliyatni bevosita materiallarni o‘zgartirish ko‘nikmasi asosida tashkil qilish:1.Aqliy ko‘nikmalar.2.Sensor ko‘nikmalar.
- 2)Amaliy ko‘nikma va malakalar-Mavjud moddiy muhitni bevosita unaltirilgan ko‘nikma va malakalar.
- 3)Kasbiy ko‘nikma va malakalar-Mehnat harakatlarini bajarishning yuqori sifatini ifodalaydi.1.Maxsus ko‘nikmalar.2.Ishlab chiqarish ko‘nikmalar.3.Kasblar bo‘yicha nazorat.
- 4)Umumfaoliyat ko‘nikma va malakalar-Ishchi xolatini saqlash,tallafuz,xusnixat v ax.
- 5)Umummehnat ko‘nikma va malakalar-Ishni rejalashtirish va tashkil etish o‘z-o‘zini nazorat qilish va h.1.Konstrukturlik.2.Texnik ko‘nikmalar.3.Tashkiliy texnik.4.Tezkor nazorat.
- 6)Umumtexnik ko‘nikma va malakalar-Chizmalarni bajarish va o‘qish, texnologik hisoblarni amalga oshirish .tkxnologik qurilmalarni rostlash.va h.
- 7)Politexnik ko‘nikma va malakalar-Texnologik obyektlar ishlab chiqarish jarayonlarining umumiyligi va xususiy holatlari to‘g‘risidagi bilimlarning amaliy qo‘llanilishi.va h.

Shu bilan birga kasb-xunar kollejlarida o‘quvchilarning Boshqaruv va releli elektrapparaturasi mavzusiga oid bilim, ko‘nikmalarini tarkib toptirishda nazariy

va amaliy dars ishlanmalari ko‘rib chiqildi. Mashg‘ulotlarni tashkil etish, samaradaorligini oshirish maqsadida Yangi pedagogik texnologiya metodlarini joriy qilish yo‘llarini ko‘rib o‘tdik.

Kurs ishi bajarishdan maqsad qilib qo‘yilgan natijalarga to‘la erishdik deb hisoblaymiz.

Malakaviy bitiruv ishimni bajarishda oldimga qo‘ygan maqsadga erishdim va jarayon davomida mehnat ta’limi va kasb hunar ta’limi haqida elektrotexnikaga oid bilimlarim shakllanishida juda foydali ma’lumotlarga ega bo‘ldim.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 49 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston tarqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 63 b.
3. Txorjevskiy D.A. Mehnat ta’limi metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
4. I.Nudler,I.K.Tulchin, "Elektrotexnika i elektrooborudovaniye zdaniy" Iz-vo «Vissaya shkola» M..
5. Q. Olimov va b. «Kasb ta’limi uslubiyati» Toshkent. «Iqtisod-moliya»nashriyoti .2006y.
6. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003 – 172 b.
7. D.A.Lepayev. Uy-ro‘zg‘or elektr asboblari va mashinalari remonti slesari uchun spravochnik. "O‘qituvchi" 1988.
8. "Elektrotexnicheskiy spravochnik" T. Z. KnigayetoriY. M. Energoatomizdat. 1988.
9. J.Yo‘ldoshev, S.A.Usmonov «Pedagogik texnologiya asoslari» Toshkent. «O‘qituvchi» 2004 y.